



MUROD MUHAMMAD DO‘STNING “LOLAZOR” ROMANI HAQIDA MULOHAZALAR

Jo‘rayeva Nafisaxon Bahodir qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti,
Samarqand filiali, 2-kurs talabasi.
Azimidin Nasirov
Ilmiy rahbar: professor

Annotatsiya: o‘zbek adabiyotining etuk darg‘alaridan biri Murod Muhammad Do‘stdir. Adibning har bir qasari o‘zbek nasrining taraqqiyotiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilganki, bu esa ijodkorning etuk mahoratidan dalolat beradi. Yozuvchining “Lolazor” romanidagi ramzlar, polifonik talqinlar kitobxonni fkrashga undaydi. Adibning bu asarida murakkab obrazlar olami, ularning ruhiy ma’naviy qiyofasi haqqoniy yoritilganligini alohida qayd etish mumkin.

Kalit so‘zlar: obraz, voqelik, xarakter, kechinma, ijodkorlik, mahorat.

РЕЦЕНЗИИ НА РОМАНА МУРОДА МУХАММАДА ДУСТА «ЛОЛАЗОР»

Джураева Нафисахон Баходир кизи
Ташкентский международный университет
имени Кимё, Самаркандский филиал, студент 2-курса
Азимидин Насиров
Научны руководитель: профессор

Аннотация: Мурод Мухаммад Дуст один из зрелых мастеров узбекской литературы. Каждое произведение писателя большой вклад в развитие узбекской прозы, что свидетельствует о высоком мастерстве автора. Символика и полифонические интерпретации в романе писателя «Лолазор» побуждают читателя к размышлению. Следует отметить, что мир сложных образов, их духовно-нравственный облик правдиво освещен в этом произведении писателя.

Ключевые слова: образ, реальность, персонаж, опыт, творчество, мастерство.

REVIEWS ON MUROD MUHAMMAD DUST'S NOVEL "LOLAZOR"

Jurayeva Nafisakhon Bahodir qizi
Tashkent Kimyo International University, Samarkand branch, 2nd year student





Abstract: *Murod Muhammad Dost is one of the mature masters of Uzbek literature. Each of the writer's works is a great contribution to the development of Uzbek prose, which testifies to the mature skill of the creator. The symbols and polyphonic interpretations in the writer's novel "Lolazor" encourage the reader to think. It can be noted that the world of complex images, their spiritual and moral image is truthfully illuminated in this work of the writer.*

Keywords: *image, reality, character, experience, creativity, skill.*

Istiqlol arafasida yaratilgan badiiyat namunalarida o'ziga xos noanaviy talqinlar, hayot voqeligini ramzlar orqali ifodalash yuzaga chiqqanligini alohida qayd etish lozim. Shu bilan bir qatorda, palifonik talqin xususiyatlari ham teranroq aks eta boshladi. Agarda she'riyatda 70-yillarda lirik kechinma, tuyg'ular ifodasi bo'y ko'rsatgan bo'lsa, nasrda bu holatni bir oz keyinroq, yuzaga chiqqanligini kuzatish mumkin.

80 – yillarga kelib badiiy adabiyotda juda katta o'zgarishlar vujudga kela boshladi. Badiiyatdagi bunday o'zgarish noanaviy romanlarni yoki polifonik tasvir yetakchilik qiladigan badiiy asarlarni vujudga keltiradi. Ana shunday tasvir xususiyatiga ega bo'lgan asarlardan biri "Lolazor" romanidir.

Roman haqida so'z yuritgan adabiyotshunos Rahmon Qo'chqor shunday yozadi: "Aslida, bu qissa ishtirokchilarining hayoti ham bir shunday tovushsiz, shippillab yonib, chog'roq bir ro'zg'orni yoritisa, bas edi. Ularning botiniy va zohiriy quvvatlari shunga yetar, undan ortig'iga o'zlari uzoq vaqt da'vo qilmagan edilar. Albatta, umidlari, ilinjlari yo'q emasdi – biri qishloqdagi obro'li muallim, boshqasi Hotam Sho'ronikiga o'xshamas kichikroq bir amal egasi bo'lasa ham kifoya, deb o'ylashardi" [1, 552 – bet].

Polifonik tasvirning ilk namunalarini Asqad Muxtorning "Chinor" romanida uchratsak, XX asrning so'ngi choragiga kelib, bu tasvir xususiyatini bir qator nasriy asarlar tarkibida kuztishimiz mumkin. Adabiyotshunos olimi Zulfiya Pardayeva "O'zbek romanlari poetikasi" nomli monografik tadqiqotida T. Murodning "Otamdan qolgan dalalar", M.M.Do'stning "Lolazor", To'xtamurod Rustamning "Kapalaklar o'yini" romanlarini polifonik romanlar sifatida e'tirof etadi va shu yuqta nazardan tahlil qilishga harakat qiladi.

O'tgan asrning oxirlariga kelib, badiiy adabiyotda ham juda katta o'zgarishlar poetik yangilanishlar maydonga keldiki, buning zahirida ijodkorning mahorati, jahon adabiyotidagi badiiy talqinlarning ta'sir ham shunday bir jarayonni yuzaga chiqishiga imkon yaratib berdi. Davr adabiyoti insonni anglash, uning botiniy olamidagi istiroblarni talqin etishni birlamchi darajaga ko'targan edi. Inson tafakkuridagi evrilishlarni, uning qalb kechinmalarini badiiy talqin etish yo'lidan bordi va bu poetik xususiyatni rivojlantirishga, badiiy matnga singdirib yuborishga harakat qilingan.



Adabiyotshunos Hakimjon Karimov qayd qilganidek: “Inson tafakkuridagi o‘zgarish davr va jamiyatdagi o‘zgarish ta’sirida bo‘lishi tabiiy hol, o‘z navbatida, jamiyatning to‘g‘ri yo‘nalishini belgilash bilan birga, o‘zining hayotdagi o‘rni va mavqeyini ham namoyon qiladi” [2, 224-bet].

“Lolazor” romanida yangicha tasvir usulining o‘ziga xos qirralarini mahorat bilan roman sujetiga singdirgan. Roman syujetida o‘rin olgan obrazlar tizimi o‘ziga xos xarakter xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi. Bunday xarakterning shakllanishida o‘sha ijtimoiy muhitning ta’siri sezilarli darajada bo‘ladi. Ijtimoiy muhit Nazar Yaxshiboyev kabi siymolarning shakllanishiga xizmat qiladi. Nazar Yaxshiboyev, Oshno kabi shaxslarning ilk hayotidagi qadamlari ularning shunday shakllanishiga xizmat qildi. Sobiq sho‘rolar davridagi adolatsizliklar, qatlamlar, yakkahokimchilik kabi xususiyatlar bilan izohlash mumkin.

Asarda qayd qilingandek, Bulduruq qishlog‘ining dohiysi Xotam Sho‘ro edi, uning asosiy maqsadlaridan biri qishloqning dong‘ini olamga yoyish, buning uchun esa savodli, ilmi, mehr - shafqatli, sadoqatli shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazishni talab etar edi. Shu maqsadda qura tashlanganda Yaxshiboy cho‘ponning o‘g‘li va Kalonqul bo‘yoqchining farzandlari o‘qishga boradigan bo‘ladi. Ana shunday xarakterdagi manologik xotira orqali o‘z o‘tmishiga nazar solar ekan, bolalikning beg‘ubor onlari, ilk shaharga qadam qo‘yishga sabab bo‘lgan voqealar ko‘z o‘ngida qaytadan jonlanadi. Polifonik tasvirga asoslangan roman syujeti monologik nutqda o‘z aksini namoyon qiladi.

Polifonik tasvirning asosiy xarakteri xususiyatlari ham tasvir jarayonida ko‘pavoslilik xususiyatining yetakchilik qilishi bilan izohlanadi. Bu tasvirni asar syujetidan o‘rin olgan Nazar Yaxshiboyev obrazi misolida ko‘rish mumkin. Nazar Yaxshiboyev uch kunlik kasalxonada davolanar ekan, o‘z olamida hayotini, o‘tgan ularni sarxisob qiladi, amalga oshirgan ishlari – yu, yaxshilik va yamonliklari, hayotning murakkab qirralarini teranroq his etishga intiladi.

Roman syujetidan o‘rin olgan voqealar tizimida xotira manologi asar qahramonlarining ruhiy olamini ochishga xizmat qiladi. Masalan: “Oshna sekin-sekin yuksalib, men ham uning ortidan imillab bo‘lsada yo‘lga tushganimda, goh uning iltifotiga, goh azobiga duchor bo‘lib, gohida uni olqishlab, gohida lanatlab yurganimda. Sezdimki, Oshno o‘sha chandiq tarixini mening ishtirokimsiz eslab qolgani tuzukroq. Unga mening voqifligimni bilgani ham og‘ir botadi. Nachora, ulug‘ odamlarda ham anchayin latifanoma kechmishlar bo‘lmog‘i mumkin, ayni kechmishlarning guvohlari tiliga pishiq bo‘lsa, bas, ulug‘likka zarracha putur yetmaydi” [2, 235-bet].

Bu manologik nutqda Nazar Yaxshiboyevning o‘ziga xos xarakter qirralari emas, uning o‘y – xayollari Oshnoning o‘sha davrdagi o‘ziga xos xislatlari haqidagi tushunchalarga ega bo‘lamiz. Har qanday asarda ma’lum ma’noda monologik nutq shakllari kuzatilar, ammo roman sujetida bu tasvir usuli etakchilik qilishini alohida



qayd etmoq zarur. “Lolazor” romanida polifonik tasvirni yozuvchi yuksak darajaga ko’tara olgan.

Adabiyotlar:

- 1.Rahmon Qo‘chqor. Iskandaru Dorolardan qolgan latifa. Qarang: Murod Muhammad Do‘st. Lolazor. Roman. – Toshkent, “Sharq”, 1998 –yil. – 560 bet.
- 2.Каримов Х. Истиқлол даври адабиёти. Дарслик. – Тошкент, “Yangi nashr” нашриёти, 2010. – 364 бет.
- 3.Murod Muhammad Do‘st. Lolazor. Roman. – Toshkent, “Sharq”, 1998 –yil. – 560 bet.